

SMTda suv va iqlim sohasida mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash masalalari muhokama etildi



Joriy yil 7-fevral kuni SMTI direktorining birinchi o'rinbosari Akramjon Ne'matov Suv resurslarini boshqarish xalqaro institutining (IWMI) Markaziy Osiyodagi mintaqaviy vakolatxonasi rahbari Barbara Yanush-Pavletta, Shveysariyaning O'zbekistondagi elchixonasi missiyasi rahbari o'rinbosari Andrin Fink va Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligining (SDC) suv resurslari va iqlim o'zgarishi bo'yicha mintaqaviy maslahatchisi Liza Marina Gampp bilan uchrashdi.

Tomonlar Markaziy Osiyoda suv resurslari va iqlim o'zgarishidan kelib chiqadigan muammolar bo'yicha o'zaro hamkorlikni mustahkamlash istiqbollarini muhokama qildilar.

Ayniqsa, mintaqada samarali hamkorlikni ta'minlash maqsadida suv-iqlim muloqoti yo'lga qo'yilgani, Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University) tashkil etilgani, shuningdek, mintaqaviy "Yashil kun tartibi" dasturi hamda iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha strategiya qabul qilinganligi ta'kidlandi.

Muloqotda ishtirok etgan tomonlar bu qadamlar kelajakdagi hamkorlik uchun mustahkam asos yaratishini e'tirof etishdi. Ayniqsa, ekologik xavf-xatarlarning ortishi sharoitida Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan O'zbekistonda joriy yilda o'tkaziladigan Markaziy Osiyoning global iqlim muammolariga bag'ishlangan konferensiyaning ahamiyati alohida ta'kidlandi. Bu tadbirning tashkil etilishi global muammolarga barham berish yo'lida samarali chora-tadbirlarni topish uchun kuchlarni birlashtirishning ahamiyatini ko'rsatmoqda. Forum mintaqaning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan strategiyalarni muhokama qilish hamda ishlab chiqish uchun asosiy platforma bo'lib xizmat qiladi.

Uchrashuv ishtirokchilari, shuningdek, o'zaro manfaatli sohalarda hamkorlikni mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratdilar. Iqlim o'zgarishiga moslashish va suv sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish yo'nalishida mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan qo'shma tadbirlarni tashkil

etishga qiziqish bildirildi. Aynan shu maqsadlar doirasida IWMI va SDC vakillari Suv resurslarini boshqarish xalqaro instituti tomonidan Shveysariya Taraqqiyot va Hamkorlik Agentligining moliyaviy ko'magida amalga oshirilayotgan "Blue Peace Central Asia" mintaqaviy loyihasini taqdim etdilar.

Shveysariya tomonidan 2010-yilda ilgari surilgan "Blue Peace" tashabbusi 2017-yildan beri Markaziy Osiyoda maxsus mintaqaviy dastur doirasida faoliyat yuritib kelmoqda. U suv diplomatiyasi, mintaqaviy suv hamkorligi loyihalari, suv resurslari bo'yicha mutaxassislar salohiyatini oshirish va yoshlarni jalb etish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Tashabbus geografik jihatdan Markaziy Osiyoning beshta davlati hamda Afg'onistonni qamrab oladi.

"Blue Peace Markaziy Osiyo" tashabbusining yangi bosqichi besh yilga - 2025-yil may oyidan 2029-yil sentyabrgacha mo'ljallangan. Loyiha uchta asosiy yo'nalishni qamrab oladi: suv sifatini yaxshilash, o'zgaruvchan iqlim sharoitlariga moslashish hamda suv va energiya resurslarini o'zaro amalga oshirish.